

JINOYAT PROTSESSUAL HUQUQIDA ISBOTLASHNING UMUMIY SHARTLARI

Xudaynazarova Uldaulet Muratovna

Qoraqolpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dalil tushunchasi va turlari, dalillar manbalarining turlari, tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan dalil sifatida foydalanish, taqdim qilingan narsalar va hujjatlarni protsessual mustahkamlash, dalillarni saqlash qoidalari, isbot qilish predmeti va doirasi, isbot qilish subyektlari, sud bosqichiga qadar isbot qilish, sud bosqichida isbot qilish, jinoyat ishini tugatishda isbot qilish, xorijiy davlatlar hududida dalillarni to'plash va ulardan foydalanish masalalari tegishli tartibda alohida mavzularda batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: dalil, isbotlash, dalillarning arxaik konsepsiysi, dalillarning mantiqiy modeli, dalillarning "ikki yoqlamalik" konsepsiysi, dalillarning informatsion modeli, dalillarning aralash (sintezlashgan) konsepsiysi, isbot qilish predmeti, isbotlash muddatlari.

Mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlarda jinoyat-protsessual qonunchiligini izchil takomillashtirish, sudgacha va sud bosqichlarini raqamlashtirish, jinoyat ishi oqilona yuritilishini ta'minlash, pirovard natijada inson huquq va qonuniy manfaatlari o'z vaqtida tiklanishi va to'la himoyalanishiga erishishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu esa jinoyat protsessida haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholash orqali isbot qilish, axborot xavfsizligini ta'minlashni taqozo etadi.

Dalil tushunchasi dalillar va isbot qilish huquqida asosiy boshlang'ich tushunchalardan hisoblanadi. Dalillarni talqin qilish yuzasidan olimlar orasida turlicha fikrlar mavjud bo'lib, bu fikr va mulohazalarni quyidagi konsepsiylar asosida tasniflash mumkin:

1. Dalillarning arxaik konsepsiysi.

Mazkur konsepsiya tarafdorlari A.Y. Vishinskiy va L.Y. Vladi-mirovlar bo'lib, 1958-yildagi Jinoyat-sudlov ishlarini yuritish asoslari qabul qilingunga qadar undan keng foydalanilgan. Konsepsiaga ko'ra, sud dalillariga odatiy faktlar, hayotdagi hodisalar, narsalar, odamlar, odamlarning harakatlari deb qaralgan

2. Dalillarning mantiqiy modeli.

Bu konsepsiya tarafdorlari S.A. Golunskiy, S.M. Kaz, M.A. Chelsov va R.S. Belkinlar bo'lib, ular real voqelikda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni jinoyat ishlarini bo'yicha dalillar deb qaraydi. Ushbu konsepsiya 1958-yilda Jinoyat-sudlov ishlarini yuritish asoslari qabul qilingandan keyin keng tarqalgan.

3. Dalillarning "ikki yoqlamalik" konsepsiysi.

Bu konsepsiya tarafdorlari A.I. Trusov, V.D. Arsenev va M.S. Strogovichlar bo'lib, dalil deb faktlarga va ular olingan man- balarga aytildi.

4. Dalillarning informatsion modeli.

Bu konsepsiya tarafdorlari V.Y. Doroxov, L.M. Karneyeva, A.A. Xmirov, A.D. Boykov va I.I. Karpetslar bo'lib, dalil deb ma'lumot (axborot) va uning tashuvchisi birligiga aytildi. Unga ko'ra, dalil tushunchasiga faktlar emas, balki faktlar to'g'risidagi axborotlar, ma'lumotlar kiritiladi.

5. Dalillarning aralash (sintezlashgan) konsepsiysi. Bu konsepsiya tarafdorlari Y.K. Orlov, I.I. Muxin, F.N. Fatkullin, G.F. Gorskiylar fikriga ko'ra, dalil deb faktlarga ham, ular to'g'risidagi ma'lumotlarga ham, shuningdek, ularning manbalariga ham aytildi.

Ish bo'yicha, avvalo, jinoyat hodisasi sodir bo'lgan-bo'lmanligi aniqlanishi lozim. Jinoiy hodisaning yuz bermaganligi (JPK 83-modda 1-qism) reabilitatsiya qilish uchun asoslardan biri hisoblanadi. Shu sababli jinoiy hodisaning yuz bermaganligi aniqlansa, boshqa isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarning aniqlanishi lozim bo'lmay qoladi.

Quyidagi hollarda jinoiy hodisa yuz bermagan deb hisoblanadi:

1) qonunda ko'rsatilgan qilmish sodir etilmagan bo'lsa va uning oqibatlari amalda bo'lmasa (masalan, o'ldirildi, deb hisoblangan shaxs tirik bo'lsa; kamomad bo'lmasa, taftishchi adashgan bo'lsa);

2) qonunda ko'rsatilgan oqibatlar ro'y bergan bo'lsa-da, ular inson faoliyatining emas, balki tabiiy kuchlar, falokatlar natijasida (chaqmoq urib o'lish kabi) ro'y bergan bo'lsa;

3) bunday oqibatlar ochiq ko'rinish turgan bo'lsa-da, ular jabrlanuvchining o'zining harakatlari natijasida kelib chiqqan bo'lsa (masalan, o'z-o'zini o'ldirish).

Isbot qilish predmetida jinoyat sabablari va oqibatlari ham muhim o'rinn tutadi. Yuridik adabiyotlarda isbot qilish haqida so'z borar ekan, bu ibora ostida jinoyat-protsessual, fuqarolik protsessual, ma'muriy protsessual, iqtisodiy protsessual hodisa tushuniladi. Shuni ta'kidlash zarurki, isbot qilishni bilish bilan aralashtirib yubormaslik kerak, chunki isbot qilish doimo bilish, tasdiqlovchi holatning mavjudligi bilan ajralib turadi. V.S. Djatiyevning fikricha, bilish "o'zi uchun" amalga oshiriladigan faoliyat, isbot qilish esa "adresat uchun" amalga oshiriladigan faoliyatdir. Bilishning maqsadi bilim olish bo'lsa, isbot qilishning maqsadi adresatni shu narsaga ishontirishdir. Tasdiqlovchi holatning mavjudligi jinoyat-protsessual isbot qilishning majburiy mezoni bo'lib, aynan shu mezon jinoyat-protsessual isbot qilishni boshqa sohalardagi isbot qilishdan farqlaydi. Isbot qilish jarayonining mazmuni va mohiyati yuzasidan hozirgacha turlicha fikrlar va mulohazalar bildirib kelinmoqda.

Boshqa sohalardagi bilishdan farqli o'laroq, jinoyat ishi bo'yicha isbot qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bular quyidagilardan iborat:

1. Jinoyat-protsessual isbot qilishda bilish predmeti o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu yerda isbot qilish predmeti bo'lib tabiat va jamiyatning qonuniyatlari emas, balki o'tmish hodisasining muayyan faktlari hisoblanadi. Albatta, isbot qilishda fan va texnika yutuqlaridan foydalaniladi, biroq bunday yutuqlar isbot qilish maqsadi hisoblanmaydi, balki ular isbot qilish vositasi sifatida maydonga chiqadi.

2. Ish bo'yicha qaror chiqarishning shartligi. Isbot qilish faoliyati qanday yakunlanishidan qat'i nazar ish bo'yicha, albatta, qaror chiqarilishi lozim. Ishning taqdiri ma'lum bir shaxslarning, jamoat va davlatning manfaatlariga ta'sir ko'rsatadi, shu sababli isbot qilish faoliyati natijasiz tugallangan va jinoyat sodir qilgan shaxslar aniqlanmagan hollarda ham qaror chiqarilishi lozim (misol tariqasida ish yuritishni to'xtatish to'g'risidagi qarorni keltirish mumkin).

3. Isbot qilish jarayoni ma'lum bir muddatlar bilan cheklangan. Jinoyat ishi yuzasidan surishtiruv uchun 1 oy, dastlabki tergov uchun jinoyat ishi qo'zg'atilgan kundan boshlab uch oydan oshmagan muddat belgilangan.

4. Isbot qilish jarayoni qonun bilan tartibga solingan va ma'lum protsessual shaklda o'tkaziladi. Jinoyat protsessual qonun dalillar bilan ishlash qoidalarini o'rnatadi. Bu qoidalar dalillarni to'plash, tekshirish va baholash, dalillarga qo'yiladigan talablar, isbot qilish subyektlari va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jinoyat protsessida dalillar va isbotlash. Darslik / D. Bazarova, D. Suyunova, S. Maxmudov, B. Shamsutdinov. Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.9-25-, 77-93-b. Jinoyat-protsessual huquqi. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy-texnik instituti. Darslik. - Toshkent: Complex Print, 2020. 102-109-, 118-132-b.
2. Muhammadiyev A.A. Dalillar nazariyasi muammolari. Magistrlar uchun darslik. - T.: TDYI. 2009. 13-26 b.
3. Sattarov U. B. Jinoyat ishi bo'yicha dalillar maqbulligi shartlari // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. - 2022. – Т.: 2.-№. 3. 7-20-b.
4. Scotchmer, S. (2002). Rules of Evidence and Statistical Reasoning in Court. In: Newman, P. (eds) The New Palgrave Dictionary of Economics and the Law. Palgrave Macmillan, London. https://doi.org/10.1007/978-1-349-74173-1_339.